



KONSTITUTSIYA-XALQCHIL DAVLAT,BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI

Amanova Halima Abdumutal qizi

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika fakulteti “Maktab menejmenti”
yo’nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o’tganliklari, ijtimoiy hayotda tutgan o’rni, rivojlanib borayotgan zaminimizda konstitutsiyamizga kirib borayotgan yangiliklar, va farovon hayot kechirishimiz uchun yaratilayotgan o’zgarishlar haqida tavfsiyalar keltirib o’tilgan.*

Kalit so’zlar: *Majburiyat, xalqchil, konstitutsiya, demokratiya, qadr-qimmat, huquq, burch, qonun, jamiyat.*

KIRISH

Mustaqil O’zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi ayni milliy qadriyatlarimizni, adolatli fuqarolik jamiyatni, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariiga o’tish yo’llarini belgilab berdi. O’zbekiston Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizning tayanch poydevoridir. Uning barcha qonunlarimiz uchun asos sifatida xizmat qilishi barchamizga ma’lum. Shu kunga qadar qabul qilingan qonunlar, qonunosti hujjatlari Konstitutsiyamiz ilg‘or qoidalarining ifodasidir. Konstitutsiyaning muqaddimasida O’zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanavor e’lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglagan holda tarixiy, milliy qadriyatlarimizga tayanib, shuningdek xalqaro huquq sohasidagi umume’tirof etilgan prinsiplar asosida insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida ushbu Konstitutsiyani qabul qilganligi e’tirof etilgan.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Ta’lim to’g’risidagi qonun, Sh.Mirziyoyev asarlari,O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Internet manbalaridan foydalilanildi.Maqolani yozish davomida nazariy va yakuniy xulosa chiqarish, mantiqiylik tamoyillari, analiz qilish usullaridan foydalilanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo’lim, 27 bob, 155 ta moddadan iborat. Mazkur yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o’tkazilgan O’zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan.Referendumda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to’g’risida”gi konstitutsiyaviy qonuni 1-maydan kuchga kirdi. Konstitutsiyaning ikkinchi bobi xalq hokimiyatçiligiga doir munosabatlri tartibga soluvchi normalarni o’z ichiga oladi. Binobarin, 7-modada “Xalq davlat hokimiyatining



birdan –bir manbaidir”, deyiladi. Ya’ni, davlat hokimiyatining chinakam egasi– O‘zbekiston xalqi. O‘zbekistonda davlat hokimiyati xalq manfaatini ko‘zlab va Konstitutsiyamiz hamda qonunlarimiz vakolat bergan idoralar tomonidangina amalgaloshiriladi. O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan Oliy Majlis va Prezidenti ish olib borishi mumkin. Hukumat tashkil etgan qo’llab-quvvatlash va dasturlar orqali. Konstitutsiya, mamlakatning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va o’zaro hamkorlikni kuchaytirishga oid asosiy prinsiplarni belgilab beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, ekologik muammolar bilan kurashish, mamlakat xususiyatlarini himoya qilish, milliy-ma’naviy boylik va madaniyatni rivojlantirishga oid prinsiplarni ham jamlab o’z ichiga olgan. Bu bilan birga, O‘zbekiston Konstitutsiyasi hukumatga, fuqarolarga va boshqa tashkilotlarga pandemiya davrida iqtisodiyotni qo’shniy darajada buzgan ta’siridan qutqarish uchun kerak bo’lgan barcha zaruriy masalalar bo'yicha ishlarni amalgaloshirish, ijro etish va huquqiy himoya ta’minalash uchun kerakli qo’llab-quvvatni beradi. Bunda, Konstitutsiya mamlakatning iqtisodiyotini ta’minalash va uning o’sishiga oid muhim masalalarni belgilab beradi va ularning hal qilinishiga oid amalgaloshiriladigan harakatlarni ko’rsatadi.

Fuqarolarimizning Konstitutsyaning 35-moddasida belgilab qo‘yilgan vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini ta’minalash maqsadida murojaatlarni ommaviy uchrashuvlar orqali qabul qilish jarayoni keng miqyosda amalgaloshirilmoqda. Bugungi kunda fuqarolarimiz mansabdorlar oldiga emas, balki mansabdor shaxslarning o’zlari xalqimiz oldiga borib, mahallalarda, ular istiqomat qilayotgan hududlarda vujudga kelgan muammolarni echimini topib, ularni ijobjiy hal qilib berishmoqda. “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan prinsip barcha bo‘g‘indagi rahbarlar faoliyatida asosiy shiorga aylanmoqda. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bu qoidaga ko‘ra qonun oldida barcha barobar. Mamlakat qonunlariga yoshidan, mansabidan qat’i nazar –barcha fuqaro bo‘ysunmog‘i shart. Jamiyatda bunga erishi uchun davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar o‘z ish faoliyatlarida Konstitutsiya va qonunlarga amal qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning e’tirof etilgan umumiyligi maqomlari ustunligini tan oladi. Birorta qonun ham, me’yoriy huquqiy hujjat ham Konstitutsiya va qonunlarga zid bo‘lmasligi kerak. “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan, Konstitutsiya va qonun ustun bo’lgan samarali va barqaror tizim shakllanmoqda. Asosiy qonunimizda ham buyuk ne’matlar orasida eng ulug‘i — “Inson uchun” degan g‘oya ilgari surilib, uni ulug‘lash, uning erkin kamol topishi uchun zarur

shart-sharoitlar yaratish o‘z aksini topgan.Binobarin, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan yurtdagina yuksalish bo‘ladi, bunday davlat fuqarosi har tomonlama barkamol bo‘lib, vatan uchun, xalq uchun jonini fido qilishga tayyor bo‘ladi. Eng muhimi, inson huquqlari ta’minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ijobjiy o‘zgarishlar va yangilanishlar sur’atlari jaddalashadi.

Ma’lumki xuquqiy davlatning asosiy vazifasi jamiyat manfaatlarini ximoya qilgan holda ish yuritish, inson haq-xuquqlarini ximoya qilish va farovon hayot tarzi uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir. Har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo‘ldagi ulug‘vor maqsad va vazifalarini, avvalo, o‘z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Zotan, unda mamlakatimizning o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsad va vazifalari, xalqaro miqyosda qabul qilingan inson huquqlari va huquq ustuvorligi hamda demokratiya tamoyillari o‘z ifodasini topgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Konstitutsiyaning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati nihoyatda kattadir. Rivojlangan demokratik davatlarda hech bir fuqaro, hech bir shaxs o‘z ijtimoiy shaxsiy hayotini, o‘z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi. Barchamiz kundalik hayotimizda Konstitutsiya belgilab bergen normalarga tez-tez murojaat qilib turamiz. Chunki, aynan Qomusimizdagina insonnig haq-huquqlarini himoya qilish ishonchli ravishda kafolatlangan. Shuning uchun Konstitutsiya qoidalarini puxta o‘rganish, uni bilish va hurmat qilish zarur. Yangi O‘zbekistonda erkin va mustaqil fikrlaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan, o‘z so‘zini aytishga qodir yoshlarimiz uchun ham bu Qomus kundalik hayotlarida asosiy dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.– T.: O‘zbekiston, 1997.
- 3.Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston,
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O‘zbekiston, 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
7. Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari” ilmiy maqolasi.ISSN 2181-1784

8. Qayumova, Y., & Urmonova, D. (2023). EXCLAVAS OF UZBEKISTAN - COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ICHTIOFAUNALS OF SHAHIMARDAN AND SOKH. Scientific Journal of the Fergana State University, 29(4). Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/30>
9. Qayumova , Y., & Komilova , X. (2023). ON THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE MORPHOMETRIC CHARACTERISTICS OF THE TURKISH SAND FISH GOBIO LEPIDOLAEMUS (K.KESSLER1872). Scientific Journal of the Fergana State University, (3), 156. Retrieved from <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/2622>
10. Каюмова, Ёркинай Кабиловна, et al. "ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВАЛЕОЛОГИИ." Вестник науки и образования 9-2 (112) (2021): 16-20.
11. Каюмова, Ёркинай Кобиловна, and Дилдора Икромжоновна Комилова. "Биология гусеницы гранатовой плодожорки (*Euzophera Bigella Zeller*)."
Проблемы современной науки и образования 10 (143) (2019): 12-14.
15. Каюмова, Ё. К., Д. Э. Урмонова, and А. М. Мирзалиев. "БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГРАНАТОВОЙ ПЛОДОЖОРКИ (*EUZOPHERA BIGELLA ZELLER*, 1848) В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ." The Way of Science (2014): 8.